# BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR

[1] M.Rahmatullayeva,[2]G Rashidova, [3]U. Karakulova-Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy unversitetining Jizzax filiali

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada boshqaruv psixologiyasining dolzarbligi, muammolari, bolalar psixologiyasi va iqtisodiy psixologiyalarning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan.Boshqaruv psixologiyasi – psixologiya fanidagi boshqarish faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o`rganuvchi soha.

**Kalit so‘zlar:**boshqaruv, rahbar, boshqaruv sifatlari, rahbarning liderlik xususiyatlari.

Prezident Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo‘ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ... Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo‘g‘indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo‘ladimi, idora yoki tashkilot boshlig‘i bo‘ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o‘rnak va namuna bo‘lishi zarur”.

Boshqaruv psixologiyasi vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv sub’yekti va ob’yekti o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin etadi. Mazkur munosabatda tizimning tashkiliy qismi itoatliylik tushunchasi bilan xarakterlanadi. Boshqaruv psixologiyasi ichida amal qiluvchi itoat tamoyili boshqaruv psixologiyasi fanida subordinatsiya deb ataladi. Ushbu ibora orqali tizimning markazlashganligi nazarda tutiladi. Subardinatsiya tushunchasidan kelib chiquvchi

munosabatlar tashkilot xodimlari, ishchilar xulqida itoat va ijro etish shakllari nazarda tutiladi.

Boshqaruv psixologiyasi fanidagi asosiy tushunchalardan biri, boshqaruv sub’yekti va ob’yekti bo‘lsa.Biz bevosita ko‘z oldimizga o‘sha jarayonni keltirsak, boshqaruv sub’yekti sifatida o‘qtuvchilarni, ob’yekt sifatida esa talabalar faoliyatini nazarda tutishimiz mumkin. Raxbarning kasbiy mahorati, o‘z-o‘zini boshqarish malakalarini egallashi, xodim hamda ishchilar boshqaruvidagi asosiy mavzulardan biriga aylanadi.

Boshqaruv psixologiyasi tushunchasi nafaqat tashkilot va korxonalarda balkim yuqorida takidlanganidek bir qancha faoliyat jarayonlarida mavjud ekanligini biz inkor eta olmaymiz. Bunda ko‘rinib turibdiki boshqaruv psixologiyasi tushinchachi faqatgina raxbar hamda xodimlar faoliyada emas aksincha, bu tushuncha juda ko‘palab faoliyatlarda mavjuddir.

Boshqaruvni jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog‘lab, shu bilan birga boshqaruvning ikki tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o‘rganish lozim. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv aniq iste’mol qiymatini olish uchun mahsulot tayyorlashda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv mavjud ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, boshqaruv maqsadlarini belgilaydi. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi uchun sharoit yaratishga imkon beruvchi faoliyat turidan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning maqsadi ishlovchilar samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish, ularni iijtimoiy himoya qilishning ishonchli umumdavlat tizimini shakllantirish, bandlikni ta’minlash va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

Boshqaruv munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lib, turli iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, mehnat, psixologik va boshqa ko‘rinishlarda bo‘ladi. Boshqaruv munosabatlari boshqaruv qo‘l ostidagi xodimlar o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro ta’sirning murakkab majmuyini ifodalaydi, demak, boshqaruv bu, engavvalo, kishilarni boshqarishdir.

Har qanday fan o‘z predmeti, nazariyasi va uslublariga egadir. Predmet fanning qaysi sohaga tegishli ekanligini belgilaydi. Nazariya bu sohada ro‘y beradigan jarayon va hodisalarning ro‘y berish qonuniyatlarini aniqlaydi. Izlanish usullari nazariyadan kelib chiqqan holda kishilar ilmiy va amaliy faoliyati qanday amalga oshishini ko‘rsatib berishi, fanning shu sohasida hodisalarni umumlashtirish va o‘rganishning turli vositalari va usullari tizimini ishlab chiqishi lozim.

Boshqaruv ilmi Ikkinchi jahon urushi davrida Angliyada olimlar guruhi fuqarolar mudofaasi va o‘t ochish pozitsiyalari inshootlarini optimal joylashtirish, kemaga qarshi bombalarni portlatish chuqurligini va transport karvonlari kabi murakkab harbiy masalalarni yechish topshirig‘ini olganda paydo bo‘lgan.

Boshqaruvning fan, ilmiy tadqiqot sohasi sifatida paydo bo‘lishi va shakllanishi, qisman, katta biznes ehtiyojlariga javob, qisman, sanoat revolutsiyasi davrida yaratilgan texnikaning afzalliklaridan foydalanishga urinish, qisman, ishni bajarishning eng samarali usullarini topish ishtiyoqida bo‘lgan bir nechagina qiziquvchan insonlarning yutug‘i edi.

Bugungi kunda boshqaruv ilmining model va usullari quyidagi masalalarni hal qilishda ishlatiladi: shaharlarda transport oqimlarini boshqarish va ayroportlarda harakat jadvalini optim izatsiyalashda, universitetlarda sinf va auditoriyalar ish jadvallarini tuzishda, supermarket va univermaglarda g‘amlangan mollarni boshqarishda, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishda, turli xil mahsulotlarning reklamasiga xarajatlarni taqsimlashda, moddiy ta’minlashni rejalashtirishda, zavodda turli xil mahsulotlami ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar va mehnat resurslarini taqsimlashda, jadvalini tuzishda o‘z samarasini beradi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri tajriba o‘tkazish mumkin bo‘lmaganday, mavjud bo‘lmagan va hech qachon bo‘lmaydigan hodisani kuzatish mumkin emas. Ammo, ko‘p rahbarlar faqat real va his qiladigan narsani ko‘rishga va bu, natijada, ulaming qandaydir ko‘rib bo‘ladigan narsaga e’tibor berishida ifodalanishi shart. Modellashtirish, - bugungi vaqtga kelib kelajakning variantlarini ko‘rishning va

alternativ qarorlarning potensial oqibatlarini obyektiv solishtirishga imkon beradigan aniqlashning yagona tizimlashtirilgan usuli. Devid B.Xers ta’kidlashicha: «Rahbar mavjud eng yaxshi alternativani o‘z resurslarini taqsimlash, o‘zi va boshqalar uchun harakatlar navbatini belgilashga, yangi odamlar va material resurslami jalb etish uchun tanlab olishi kerak. Buning uchun u qisqa va uzoq muddatli kelajakda qarorlarning oqibatlari paydo bo‘ladigan muhit xususiyatlari va barqarorligi ta’rifiga ishonishi kerak. U bunday bir paytning o‘zida muqarrar va oldindan aytib bo‘lmaydigan muhitning butun noaniqligini tasavvur qilishi kerak».

Boshqaruv ilmining modellari yuqori darajada bu maqsadlarga moslashgan va kuchli tahliliy vosita sifatida murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish bilan bog‘liq ko‘p muammolarni hal etishga imkon beradi.

Boshqaruv nazariyasi asoschilari Teylor, Ford, Gilbert, Emerson, Fayol va boshqalardir. Boshqaruv nazariyasining tarixan dastlabki yo‘nalishi «klassik» (an’anaviy) maktab nomini olgan. Bu maktabning vujudga kelishida amerikalik muhandis va tadqiqotchi Frederik Teylorning xizmati katta. Teylor xizmat pog‘onasining barcha darajalarini - AQSH (Bestlegem)dagi yirik metallurgiya korxonasining kichik xizmatchisidan boshqaruvchisigacha bo‘lgan lavozimlarni egallagan. U birinchilar qatorida ishlab chiqarishning ayrim jarayonlarini tashkil etish hamda butun korxonani boshqarishga ilmiy yondashishni qo‘lladi.

Uning «Korxonani ilmiy boshqarish asoslari», «Boshqarishni ilmiy tashkil etishning tamoyil va usullari», «Sanoat korxonalarini ma’muriytexnikaviy tashkil etish» kabi mashhur asarlari xorijda chop etilgan ishlab chiqarishni boshqarishni ilmiy tashkil etish bo‘yicha adabiyotlarning katta to‘plamiga asos soldi. Teylor mehnat jarayonlarini maxsus funksional boshqarish zarurligini asoslab berdi, jismoniy mehnat bilan bir qatorda ishlab chiqarishni tashkil etishni tarkibiy unsurlarga ajratib ko‘rsatishga harakat qilingan ishlangan sxemada o‘lda-jo‘lda, pala-partish ishlash mumkin emasligi, har bir narsa oldindan qilingan, ishning barcha shartlari va usullari oldindan aniq belgilangan bo‘lishi aks ettirilgan.

Boshqaruv insonlarni ongli mehnatga, tadbirkorlikka qiziqtirish, ishga mas’uliyatliligini nazorat qilish, ularning bilim va ko‘nikmalari faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlash, rag‘batlantirishni tashkil etishdir. Bu fan predmeti ham xo‘jalik yuritishning barcha bo‘g‘inlarida boshqarishni tashkil etish shakllari, uslublarini ifodalovchi nazariy va amaliy tam oyillari majmuyidan iborat.

Boshqaruv usullarini puxta egallagan, qo‘llay biladigan rahbar shu faoliyatni samarali boshqarishda nafaqat ishlab chiqarishga, qolaversa, butun iqtisodiyotning rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunning eng muhim vazifasi, deb ta’kidlaydi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, «hayotimizning barcha sohalarida, ayniqsa, boshqaruvda, respublikamiqyosida, viloyat, tuman, qishloq va mahallalarni boshqarishda, tarmoq bo‘g‘inlarini idora etishda yangicha fikrlaydigan, qiyin damlarda mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, hayot bilan ham qadam yurishga qodir, iymoni pok, bilimdon, ishbilarmon odamlarni topish, ularga ishonch bildirishdan iborat».

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduvakilovna, Karakulova Umida, and Ravshanova Xurshida Xusanovna. "O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 91-94.

2. Abduvakilovna, Karakulova Umida, and Xolboyev Jasurbek Baxriddin o‘g‘li. "O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 87-90.

3. Abduvakilovna, Karakulova Umida. "OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 95-98.

4. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6
5. Alibekov, D. (2021). SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVЫ RAZVITIYa SISTEMЫ OBRAZOVANIYa. *Jurnal muzыki i iskusstva*, *2*(2).
6. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Журнал музыки и искусства* 2.1 (2021).
7. Buribaevich, M. K., Yuldashev, S. E., & Ugli, S. L. B. (2022). Psychology of Modern Leadership as an Important Phenomenon of Effective Management. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(1).
8. Burxanovna S. M. OQUVCHILAR MUSTAQIL TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYA BERISH MEXANIZMLARI //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 72-75.
9. Burxanovna S. M. PLANNING OF THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING IN ORGANIZING THE EDUCATION PROCESS OF FUTURE ENGINEERS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 8. – С. 222-226.
10. Davlataliyevna, S. N. (2022). OILADAGI SALBIY MULOQOTNING FARZAND PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 475-478.
11. Davlataliyevna, S. N. (2022). PSYCHOLOGY AND ITS PRINCIPLES. *Scientific Impulse*, *1*(5), 823-826.
12. Davlataliyevna, S. N. (2022). UMUMIY PSIXOLOGOYA VA TURLI XIL PSIXOLOGIK AMALIYOTLAR. *Scientific Impulse*, *1*(5), 820-822.
13. DjumanovSh.Z.Talabalarnikommunikativqobiliyatlarinishakllantirishvakasbiy muomalajarayonigatayyorlash. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги*, 112-115.

14. Ergashevich, Y. S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 46-49.
15. Ergashevich, Y. S. (2022). Pschology of modern leadership as an important phenomenon of effective management". Intenational Journal of Early Childhood Special Education ISSN, 1308-5581.
16. Gulomovna R. G. TALABALARDA PEDAGOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 506-509.
17. Otamuratov R.U. O'SMIRLARDAGI KASBIY O'ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlardagi-kasbiy-o-zligini-anglashidagi-xavotirlanishning-psixologik-xususiyatlari (датаобращения: 30.01.2023).
18. Otamuratov R.U., Ochilova M. EMOTSIONAL INTELEKT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi (дата обращения: 30.01.2023).
19. R.U.Otamuratov., Kasbiy tanlovlardagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari., ГЛОБАЛ ДУНЁДА ПСИХОЛОГИЯ ФАНИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ, ЧАҚИРУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР Профессор Эргаш Ғозиевич Ғозиев хотирасига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси материаллари 16 феврал 2022 йил 2022 у., - 379 b.
20. Rahmatullayeva M. O 'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
21. Rahmatullayeva M. XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI //ЖурналПедагогикиипсихологиивсовременномобразовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.

22. Rashidova G. “COMPENTLIK” AND “COMPACTNESS” OF TINCALARING OF TALHS AND JEWELRY //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – Т. 2021. – №. 4. – С. 99-112.
23. Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 8. – С. 169-172.
24. Sattorova Mahliyo Burxanovna. (2022). TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, *1*(2), 436–440. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/227
25. Uskanovich, O. R. (2022). PSIXOLOGIYADA XAVOTIRLANISHNING ILMIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 494-498.
26. Yuldasheva S. I.A. KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G‘OYALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.
27. Yuldasheva Sojida Zoirovna, Nizomov Bekhruz Umarovich, Kholova Mohina Khayot qizi, & Eshtemirov Avazbek Nodir ugli. (2022). PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(12), 153–161. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/365
28. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
29. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, *1*(1), 513-515.

30. П.М.Рахматуллаева, М.А.Маҳкамова ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ // CARJIS. 2022. №SpecialIssue 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-talim-sifatini-oshirishda-motivatsiyaning-rni-yohud-ulkan-ma-sadlar-sari-dastlabki-adam (датаобращения: 26.01.2023).

31. Р.У.Отамуратов., Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари.Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги. 2021., - 282 б.

32. Arakulov, G. (2023). ВНИМАНИЕ – ВАЖНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7681

33. Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ - ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7714

34. Djumanov, S. (2023). TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSIGA YONDASHUVLAR VA TUSHUNCHALAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7719

35. Yuldashev, S. (2023). LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA SINF RAHBARINING O‘RNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7716

36. Yuldashev, S. (2022). KIBERHUJUMLARDAN HIMOYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/6548

37. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721

38. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). INTERNETNING SHAXSGA TA'SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7723

32.Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).

33.Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *1*(1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369

34.Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *1*(1). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375

35.Majidov, J. B. (2020). Some characteristics of relationships in football teams. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1981–1988. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2020.01488.3

36.Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (3). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325

37.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.

38.Majidov, J. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС СУИЦИДАЛ ХУЛҚНИНГ АЙРИМ САБАБЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *2*(7). извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5766

39.Majidov, J. (2021). ЁШЛАРНИНГ ОИЛАВИЙ ҲАЁТ ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИ ВА ОИЛАВИЙ ҲАЁТДАН ҚОНИҚИШ УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *1*(1).

40.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОИЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, *1*(6), 69-77.

41.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОИЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, *1*(6), 69-77.

42.Мажидов Жасур, & Ҳамдамов Ҳайдарбек. (2022). ШАХСГА СТРУКТУРАВИЙ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Involta Scientific Journal, 1(7), 138–148. Retrieved from https://involta.uz/index.php/iv/article/view/255

43.Imomqulova, F. U. B., & Qarshiboyeva, D. B. (2022). KO ‘P VA YOLG ‘IZ FARZANDLI OILADAGI FARZANDLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINING O ‘ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(Special Issue 4-2), 1142-1146.

44.Majidov, J. (2022, March). BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIMI O‘ZLASHTIRISH MUAMMOSINING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK SABABLARI. In *International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding* (Vol. 1, No. 1).

45.Majidov, J. B., Sobirov, A. B., Karshiboeva, D. B., & Mamarayimova, R. U. (2022). Factors Of Formation Of The Scientific Worldview Of The Person And Their Interrelation. *PORTA LINGUARUM*, *37*, 65-70

46. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7724

47.Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7721

48. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). VIRTUAL MUHITNING SHAXSGA TA'SIRINING HISSIY OMILLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7727